

## HARBIY XIZMATCHILARNING HARBIY VATANPARVARLIK HISSINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

*Davlatov Jamoliddin Kurbonboy o'g'li*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o'quv  
markazi o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10615999>

**Annotation:** *this article provides information on raising the spiritual and educational level of military personnel and its importance.*

**Keywords:** *loyalty to the motherland, brave and ambitious, spiritually and spiritually mature, patriotism, family, neighborhood, personal content.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish va uning ahamiyati borasida ma'lumotlar keltiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Vatanga sadoqat, jasur va g'ayratli, ma'nan va jismonan yetuk, vatanparvarlik, oila, mahalla, shaxsiy tarkib.*

O'zbekiston Respublika mustaqillikni qo'lga kiritgach, barcha sohlar tubdan isloh qilindi, barkamol avlodni voyaga yetkazish orzusi bosh maqsadimiz qilib olindi. Mudofaani amalga oshirish har bir mamlakatning muhim strategik vazifalaridan biri sifatida, ichki va tashqi xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy institutlar faoliyatini va harbiy mexanizmlarni takomillashtirish amalga oshiradi. Harbiy faoliyat, bu davlatning turli ijtimoiy institutlar tomonidan maqsadlarni amalga oshirish uchun harbiy kuchni yaratish, tayyorlash va qo'llashga yo'naltirilgan faoliyati, munosabatlar va ijrolar tizimining majmuasidir. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri – harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish borasida muhim o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev bu borada shunday deya ta'kidlaydi: "bir fikrni hech qachon unutmasligimiz kerak: armiyani moddiy jihatdan barcha zamonaviy zarur texnika va jihozlar, qurol-yarog'lar bilan ta'minlash mumkin. Ammo shaxsiy tarkib ma'naviy jihatdan zaif bo'lsa, ya'ni askar va ofitserlarimizda jangovar ruh, Vatanga mehr va sadoqat, uning taqdiri uchun ma'suliyat bo'lmasa yoki ularning o'rtasida beparvolik hukm sursa, bunday holat nihoyatda noxush oqibatlariga olib kelishi mumkin"[1.– B.162.]

Darhaqiqat, harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligi borasida e'tiborsizlik yoki sustkashlikka yo'l qo'yilsa, ularning dunyoqarashi va ruhiyatida muammolar vujudga kelishi mumkin. Bu boradagi ishlarni tizimli ravishda amalga oshirish maqsadida 2018 yil 23-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorda yoshlarni Harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilib, yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafligi va muqaddas

burch ekanini chuqur singdirish ta'kidlab o'tilgan[2]. Ushbu qarorda yoshlarda harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini tizimli ravishda, ya'ni, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining o'zaro aloqadorligi jarayonida amalga oshirilishi belgilab berilgan.

2018 yil 4 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar harbiy-xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida "Vatan muqaddas, uni himoya qilish sharafligi burchdir" degan kontseptual g'oya asosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, harbiy xizmatchilarning bilimi va ma'naviy saviyasini oshirish, axloqiy-ruhiy xislatlari va huquqiy bilimlarini mustahkamlash bo'yicha samarali mehanizmlarni yaratishga qaratilgan O'zbekiston Qurolli kuchlar tizimida ma'naviy - ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish kontsepsiyasining Qurolli kuchlar tizimida izchil amalga oshirilishi belgilab qo'yildi[3]. Bugungi kunda Qurolli kuchlar tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish ekan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlab o'tganlaridek, "armiya va xalq – bir tanu bir jon"[4.–B.371] tamoyili ham bu borada belgilovchi ahamiyatga egadir. Chunki, xalq – armiyaning birdan bir manbai hisoblanib, mard, Jasur va g'ayratli, ma'nan va jismonan yetuk yoshlar albatta, xalq orasida tarbiyalanadi va Qurolli Kuchlarimiz saflari muntazam ravishda yangilanib va to'ldirilib boriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilganining 27 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigida "xalqimizning "Bilagi zo'r birni engadi, bilimi zo'r - mingni" degan maqolida chuqur ma'no bor. Shu nuqtai nazardan, Qurolli Kuchlarimizni modernizatsiya qilish, xususan, harbiy ta'lim sohasiga zamonaviy bilim, ilg'or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha boshlangan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur.

Ayni paytda shaxsiy tarkib o'rtasida milliy o'zlikni anglash va jangovar ruhni, vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish har doimo e'tiborimiz markazida bo'lishi lozim. Shu maqsadda yosh askar va kursantlar uchun harbiy qasamyod qabul qilishdan avval "O'zbekiston tarixi" fani va "Temur tuzuklari" kitobi bo'yicha sinov o'tkazish tartibini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir" deya ta'kidladilar[4.- B.373].

2020 yilning 10 – yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Sh.M.Mirziyoev xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqida "– armiya moddiy jihatdan eng zamonaviy va zarur vositalar bilan ta'minlangan bo'lishi mumkin, lekin axloqiy jihatdan zaifligi, jangovar ruhi, Vatanga sodiqlik va muhabbat, uning taqdiri uchun ma'suliyat xissi yo'qligi yoki loqaydlik tuzatib bo'lmas oqibatlariga olib kelishi va mumkin"[5.-B.1.] deya ta'kidlagan holda harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yuksaltirish muhim masala ekanligiga e'tiborni qaratdilar.

Demak, Qurolli Kuchlarimiz tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri–bu albatta, harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirishdan iboratdir. Agarda, harbiy xizmatchilarimizda ruhiy - ma'naviy chiniqish va intellektual salohiyatni yuksaltirish masalasiga etarlicha e'tibor qaratilmas ekan, oldimizga qo'yilgan zamonaviy - professional armiyani shakllantirishdek ustuvor vazifani amalga oshirishda jiddiy muammolarga duch kelinadi. Chunki, ma'naviy-ruhiy va intellektual jihatdan salohiyati etarli bo'lmagan harbiy xizmatchi o'zining eng yuksak burchi – o'z Vatani, xalqi va Prezidentiga sadoqat bilan xizmat qilishi, Vatan sarhadlarini turli xavflardan himoya qilishda murakkabliklarga duch keladi. Shu sababli bugungi kunda unib - o'sib kelayotgan yoshlarni oiladan boshlab vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga e'tiborni qaratgan holda ularda mardlik va jasurlik, o'z ona Vataniga sadoqatni shakllantirish lozim. Islohotlar, undagi maqsad va vazifalarni to'liq amalga oshirilishi ta'lim tizimini har tomonlama taraqqiy etib borishini, davlatimizning bosh maqsadi va xalqimizning azaliy orzusi bo'lgan jahon talablariga javob bera oluvchi har taraflama etuk shaxsni voyaga etkazishni taqozo etadi. Buning uchun albatta ruhan va jismonan barkamol bo'lishlari, har qanday qiyinchiliklarni engib o'tishga tayyor turishlari darkor.

**Adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy Bahodir. 2-jild. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018.- 508 b.
2. qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.02.2018 y, 09/18/140/0816-son/.
3. (qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.08.2018 y., 07/18/3898/1622-son)
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug'xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug'va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018.- 400 b.